

Date: 25th January-2025

SHAYBONIYLAR DAVLATI

Bosaraliyeva Shohista Muhamedaminovna

Namangan viloyati Mingbuloq tumani
8- son maktabning tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: O'zbek davlatchilik tarixida muayyan o'rniga ega bo'lgan Shayboniylar davlati alohida o'ringa ega. Ushbu maqolada Buxoro xonligi va unda Shayboniylar sulolalari, ularning davridagi ijtimoiy, siyosiy hamda madaniy sohalaridagi taraqqiyot, shu bilan birga adabiyot, san'at va me'morchilik ishlaridagi yutuqlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Shayboniylar, jang, Buxoro, Samarqand, Xorazm, sulola, Oltin O'rda, Oq O'rda, davr, davlat, xalq, o'zbek, qozoq.

Bilamizki, tariximizda Shayboniylar davri tarixi o'ziga xos o'rin tutadi. Chin ma'noda Shayboniylar (1451-1510) markazlashgan davlat barpo etdi. Shu bilan bir qatorda davlat boshqaruvida o'zining kuchli siyosatchi va sarkarda ekanligini ko'rsatdi. O'zbek xalqi davlatchiligi taraqqiyotida Shayboniylar sulolasining hukmronligi katta ahamiyat kasb etadi va bu nasl-nasab vakillarining hayoti, tarixi, ular bilan bog'liq turli voqea va jarayonlar ilmiy tadqiqot ishlarida maxsus ravishda, ba'zan esa qisman o'rganilgan.

XV asrning 90-yillarida Movarounnahrda temuriylar saltanati amalda mustaqil boshqariladigan viloyatlarga aylanib qolgan edi. Kichik bir viloyatda hokimlik qilayotgan temuriy shahzodalarning har biri poytaxt Samarqandni egallash, bobokalonlari o'tirgan taxtga chiqib, butun mamlakatga yagona hukmdor bo'lish orzusida edilar. Bu niyatga yetish uchun ular o'rtasida o'zaro ichki nizo avj olib ketgan bo'lib, mamlakat aholisining ham temuriylardan noroziligi kuchayib borayotgan bir davr edi.

"Tarixga e'tibor qaratsak, Shayboniylar asli XI asrdan boshlab Balxash ko'li va Sirdaryoning quyi oqimlaridan Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo'lgan hududlarda qipchoq va boshqa turkiy qabilalarning hukmronlik qilgan. Botuxon 1236- yilda asos solgan Oltin O'rda davlati XIV asr boshlarida ikki qismga ajralib ketgan bo'lib, uning sharqiy qismida ayrim tarixiy manbalarda "O'zbeklar mamlakati" deb yuritilgan Oq O'rda davlati tashkil topdi. Bu hududda Jo'jixonning beshinchi o'g'li Shaybon urug'idan bo'lgan Abulxayrxon (1412-1468 yy.) 1428-yilda mustaqil davlatga asos soldi. Lekin urug' boshliqlarining mustaqil hukmronlikka intilishlari va 1468- yilda Abulxayrxon vafoti bu davlatning inqirozga uchrashiga sabab bo'ldi. XV asrning 80-yillariga kelib, Abulxayrxonning nabirasi, Budoq Sultonning o'g'li Muhammad Shohbaxt Shayboniylar bobosining davlatini qayta tiklab, Shayboniylar sulolasiga asos soldi.

Shayboniylar sulolasi Buxoroni 1500-1601-yillar davomida boshqarganlar. Muhammad Shayboniylar XV-asr oxiri va XVI asr boshlarida toju-taxt uchun o'zaro kurashayotgan temuriy shahzodalarning o'zaro nizolari oqibatida Movarounnahrning asosiy shaharlari: Samarqand va Buxoroni osonlik bilan egallab, yangi davlatga asos soldi.



Date: 25th January-2025

Keyinchalik Movarounnahrning qolgan hududi va Xuroson ham bu davlat tarkibiga kiritildi.

Shayboniylar davrida mamlakat poytaxti maqomini olgan Buxoro adabiyot, san'at, me'morchilikning badiiy yuksak namunalari o'zida mujassam qilgan shaharga aylandi. Hasano'ja Eisoriy, Shayx Jalol, Mushfiqiy, Mavlono Qabuliy Buxoriy, Devona Husomiy, Mavlono Kasiriy Buxoriy va boshqa qator shoirlarning ijodi shu davrda badiiy yuksaklikka erishdi. E'tiborlisi shundaki, bu davrda ijod qilgan shaxslarda shayxlik xislatlari va qozilik amallari bilan birga nazmga rag'bat va oshuftalik kuchli edi. Natijada ular tomonidan ko'plab she'riy misralar, g'azallar yozilib, Buxoro adabiy muhitining jozibador namunasi sifatida bizgacha yetib keldi.

Shayboniylar davrida fan va madaniyatning rivojlanishida mazkur sulola namoyandalarning tutgan o'rni katta bo'lgan. Avvalo, ularning o'zlari nihoyatda o'qimishli shaxslar edilar. Chunonchi, Muhammad Shayboniyxon, Ko'chkinchixon, Ubaydulloxon, Abdulazizxon kabi Shayboniylar turkiy va forsiyda she'r bitganlar. Diniy va dunyoviy ilmlarda yetarli salohiyatga ega bo'lganlar. Muhammad Shayboniyxon yoshligida ta'limni Buxoro madrasasida olgan. Ubaydulloxonning musiqa ilmiga katta rag'bati bo'lgani, musiqiy asboblarga chalgani, nozik xusnixat egasi bo'lgani ma'lum. Shayboniylar davrida ham tarix ilmi juda rivoj topgan.

"XVI asr tarixini yoritib beruvchi "Tavorixi guzidai nusratnoma", Mulla Shodiyning "Fathnoma", Binoiyning "Shayboniynoma", Muhammad Solihning "Shayboniynoma", Abdulloh Nasrullohning "Zubdat al-asror", Fazlulloh Ro'zbekxonning "Mehmonnoma Buxoro", Zayniddin Vosifiyning "Badoi ul vaqoye", Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" kabi mumtoz tarixiy asarlari fikrimiz dalilidir. Bundan tashqari Muhammad Shayboniyxon davrida Binoiyning "Ajoyib ul Maxluqot" geografik asarini ham aytishimiz mumkin.

XV asrning ikkinchi yarmida milliy – madaniy markazi bolgan Hirot, XVI asrga kelib o'z mavqieni yo'qotdi, avval Shayboniy, keyinchalik esa Eron shohi Safoviy hukmdorlarning chekka shaharlaridan biriga aylanib qoldi. Bu davrga kelib madaniy va adabiy markazlik roli Samarqand va Buxoroga ko'chgandi. Bu shaharlarga faqatgina O'rta Osiyo hududidangina emas, balki Eron, Afg'oniston, Hindiston shaharlaridan ham bu yoki u sohalarning ishtiyoqmandlari kelar edilar. Natijada bu o'lkada o'sha zamon madaniyati va adabiyotining turli sohalarida ancha – ko'zga ko'ringan vakillar yashab ijod etishgan.

XVI asrda Movarounnahrda adabiyot, tarix fani me'morchilik va tasviriy san'at rivojlanib bordi. Poeziya juda ravnaq topdi. Hasan Buxoriy Nisoriy (1566 yil)ning "Muzakkir ul - ahbob" va Mutribiyning (1604 – 1605 yillar) "Tazkiroti Shuaro" nomli O'rta Osiyo antolgiyalari buning shohididir.

Shayboniylar davri Buxoro me'morchiligining badiiy kompozitsion ko'rinishlari darvozalar, masjid, madrasa va boshqa inshootlar qurilishida o'z ifodasini topgan. Shayboniylardan Abdullazizxon va Abdullaxon davrida Buxoro atrofi yangi devor bilan o'rab olindi va darvozalar qurildi. Abdullazizxon barpo ettirgan qal'a devorlarini Abdullaxon g'arbiga tomon kengaytirdi va 11 darvoza barpo etildi. Ular quyidagicha nomlangan: Samarqand darvozasi, Hazrati Imom darvozasi, O'g'lon darvozasi, Talipoch



Date: 25th January-2025

darvozasi, Shergiron darvozasi, Qorako'l darvozasi, Shayx Jalol darvozasi, Namozgoh darvozasi, Salloxona darvozasi, Qavola (Qarshi) darvozasi, Mozori Sharif darvozasi kabilar.

Shayboniylar davlatining ma'lum muddat poytaxti bo'lgan Samarqandda ushbu sulola hukmronligi davrida madaniy hayot ham rivojlangan. Shayboniylar me'morchilik ishlariga ham ahamiyat berib, bu davrda bir qator yodgorliklar bunyod etilgan. Sulola vakillari maqsadga mo'ljallangan qurilish ishlarini amalga oshirgan. Bu borada nafaqat sulola namoyandalari, balki o'z davrining ko'zga ko'ringan katta moddiy imkoniyatga ega kishilari ham chetda qolmagan. Chunonchi, Samarqanddagi Muhammad Shayboniy qurdirgan Xoniya, Abu Said Kalbobo, Ko'kaldosh, Mehr Sultonxonim nomi bilan bog'liq madrasalar shular jumlasidandir. Bu davrda Samarqandda Alayka Ko'kaldoshning Juma masjidida marmar minbar (1528 y.), Juvonmard Alixon tomonidan hammom (1574 y.), Qozi Soqiy madrasalari qurilgan.

Bu davrda tibbiyot sohasida bir qancha mohir tabiblar, hozirgi hakimlar yetishib chiqdilar, o'z davrida "iftixor-ul-atib-bo" tabiblar iftixori unvonini olgan Muhammad Mazid, Hakim Shahrizabziy, jarroh (xirurg) mavlono Baqo, mavlono Rafe, 1541 yilda ilmiy tib va dori-darmonlar haqida asar yozgan Muhammad Husayn ibn Shirakas Samarqandiy, ko'z kasalliklarini davolashda nom chiqargan Shoh Ali ibn Sulaymon, o'z zamonasining Suqroti nomini olgan Xoja Hakim va natijat-ul atbo laqabini olgan mavlono Abdulhakim ibn Mavlono Sulton Mahmud kabi hakimlar shular jumlasidandir. Bu tabiblar orasida, ayniqsa, mavlono Muhammad Mazid o'zining ilmiy faoliyati bilan alohida ajralib turadi.

Boshqaruv jihatdan bu davlat bir markazdan tizim asosida boshqarilgan. Shuning uchun tashqi siyosatda o'z pozitsiyasini ushlab tura olgan. Muhammad Shayboniyxon barpo etgan davlat ko'chmanchilik an'analari tub o'troq xalq an'analari bilan muvofiqlashtirishga asoslangan bo'lib, bu harbiy tizimda, tashqi siyosatda funksiyalari va ularning nomlanishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Shayboniylar davlati tashqi siyosatda Hindiston, Eron, Turkiya va Rossiya davlatlari bilan o'z diplomatik aloqalarini yo'lga qo'ygan. Bu nimaga kerak degan savol tug'iladi. Aynan davlat tashkil topdimi u tashqi siyosati bilan tirikdir. Bu o'z navbatida davlatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksaltiradi. Shayboniylar davlati ham aynan shunday maqsadda o'z tashqi siyosatini yurgizdi. Ayniqsa, Buxoro-Hindiston munosabatlarini e'tirof etish kerak. Buxoro xonligi Hindiston bilan diplomatik aloqalarni Abdullaxon II va Akbarshoh(1556-1605) davrida faollashdi. Hindiston bilan aloqalar iliq kechgan bu davrda o'z navbatida ikki davlat uchun aholi turmushini yaxshilashga va do'stlik munosabatlarini saqlab qolishga xizmat qilgan. Bundan Buxoro xonligi ham Hindistondagi Boburiylar davlati ham manfaatdor edi.

Buxoro-Eron munosabatlari avvaliga yaxshi bo'lmagan, keyinchalik yaxshilangan. XVI- asr boshlarida Safaviylar va Shayboniylar o'rtasida tinchlik sulhini tuzishga harakat qilgan. Lekin ularning urinishlari ko'p hollarda natijasiz tugagan.

Buxoro-Turkiya tashqi siyosatlari ancha yaxshi kechgan. Albatta bunda manfaatlar to'qnashuvi bor edi. Shayboniyxon bilan Usmonli turk sultoni Boyazid II(1481-1512) o'rtasida Eron Safaviylariga qarshi kurash to'g'risida shartnoma tuzilgan. Usmonli turk davlati bilan aloqalar Shayboniyxondan keyin ham davom etgan. Bir qator hujjatlar



Date: 25th January-2025

tasdiqlashicha, Navro‘z Ahmadxon va keyinchalik, Abdullaxon II ning o‘g‘li Abdulmo‘minning turk sultoni Murod III (1574-1579) ga yozgan xati nusxasini keltiradi. Xatda 1589-yilda Mashhad olingandan so‘ng, yuzaga kelgan vaziyat nuqtai nazaridan kelib chiqib, Eronga qarshi hamkorlikda yurish qilish lozimligi haqida so‘z boradi.

Eng qaynoq diplomatik aloqalar albatta Rossiya bilan bo‘lgan. Buxoro- Rossiya munosabatlari XVI asrdan jonlana boshlandi. Shu davrda podsho Ivan Grozniy (1533-1584) mavqeyi kuchaya boshladi. Buxoro elchilari 26 marta Moskvaga tashrif buyurgan bo‘lsalar, rus elchilari esa 9 marta Buxoro va Xivaga kelganlar. Asosiy ko‘zlangan maqsad albatta savdo iqtisodiy aloqalar edi. Keyinchalik esa Rossiya o‘zining siyosatini o‘tkaza boshladi. Abdullaxon II tomonidan 1557-1558 yillarda Moskvaga elchilar yuborilgan. Bu elchilikdan ko‘zlangan maqsad o‘z xonlari nomidan savdogarlarning Volga bo‘ylab erkin o‘tishlariga ijozat so‘raydilar.

Shayboniylar davrida Buxoro xonligining tashqi siyosati o‘z qarashlari, pozitsiyasi bilan katta o‘ringa ega. Xulosa qilib aytganda, Shayboniylar tashqi siyosatda neytral bo‘lganlar. Eron bilan Rossiya taqqoslaganda ko‘proq Rossiya bilan aloqalar kuchli olib borilgan. Bunda Moskva- O‘rta Osiyo diplomatiyasi vujudga kelgan. Hindiston va Usmonlilar bilan aloqalar ham o‘z o‘rni va rolga ega bo‘lgan. Garchi Shayboniylar sulolasi ko‘p yashamagan bo‘lsada tashqi siyosatda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akbar Zamonov. "Buxoro xonligi tarixi". Toshkent 2021-yil
2. Ziyodulla Muqimov. Shayboniylar davlati va huquqi, Toshkent "Adolat", 2007.
3. Anvar Erqo‘ziyev. "Buxoro xonligi tarixi". Namangan 2018-yil
4. Muhammad Solih. Shayboniynoma, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, Toshkent. 1998.
5. Qo‘ldosh Ergashev, Hojiakbar Hamidov. "O‘zbekiston tarixi". Toshkent 2018
6. A.Saidov. Turkiya va Shayboniylar sulolasi: Madaniy va iqtisodiy aloqalar. Tashkent: Fan va texnologiya-2017.
7. S.Tursunov. O‘zbekiston tarixi: Shayboniylar va Usmonli imperiyasi. Toshkent: Sharq – 2016.
8. R.Shamsuddinov, X.Mo‘minov. "O‘zbekiston tarixi". Andijon 2011-yil

